



BUGUNGI KUN KITOBLARI QANDAY BO‘LISHI KERAK.

Shayqulov Hamza Shodievich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.

+998(97)9129331

Rasulova Muxsina Roziqovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti sud - tibbiyoti kafedrasi dotsenti.
+998(97)9184113

Shodiev Javoxir Hamzaevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi.

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda an'anaviy (bosma) o‘quv adabiyotlarga qarama - qarshi holda 3D, 5D, 7D kino-, videofilmlar, audi-, animatsiyalangan virtual filmlar, televidenie, multimedia vositalari, mobil ilovalar va shu kabi axborot beruvchi ko‘plab zamonaviy vositalar mavjud mavjud bo‘lgan shunday sharoitda ta’lim muassasalarida bugungi kun kitoblarlarining o‘rni qanday bo‘lishi haqida fikirlar keltirilgan, An’anaviy bosma shakldagi darslik, o‘quv qo‘llanma kitoblari va elektron o‘quv qo‘llanmalar qiyoslanib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiya, kompyuter, an'anaviy (bosma) o‘quv adabiyotlar, 3D, 5D, 7D, kino-, videofilmlar, audi-, animatsiyalangan virtual filmlar, televidenie, multimedia vositalari, mobil ilovalar, elektron o‘quv qo‘llanmalar.

*“Agar yolg‘iz ersang, xamdam kitobdur,
Bilim subhidagi nur xam kitobdur”.*

Abduraxmon Jomiy

Prezidentimiz ta’kidlaganidek “Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday engilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda”

Hozirgi kunda internet tarmoqlari va umuman raqamli axborot texnologiyalari hayotimizni keskin o‘zgartirib yubormoqda. Amaliy tahlillar ta’lim jarayonida katta samaraga ega bo‘lishi uchun o‘quv jarayonida interfaol, didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanishni taqozo etmoqda.



Kitob – eng qimmatli xazina. U insoniyat kashf qilgan eng buyuk kashfiyotlardan biridir.

U ajdodlarning qimmatbaho ma’naviy merosini avlodlarga etkazib beruvchi dono ustozlarning eng sodda, ammo sabotlisidir. Ularsiz hayotimizni tasavvur qilish, olamni anglash naqadar mushkul. U bizga bolaligimizdan hamroh bo‘ladi, hayotning g‘aroyib sir-sinoatlari bilan tanishtiradi, qiyin vaziyatlarda foydali maslahatlarni beradi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, o‘z-o‘zimizni anglashni o‘rgatadi.

Kitobning asosiy vazifalaridan biri – bu ilm-fanning qimmatbaho durdonalarini asrlar osha saqlab qolish va kelgusi avlodga etkazib berish. Kitob bilan suhbat insonning kamolotga etishida muhim ahamiyatga ega. U insonni olg‘a borishga chorlaydi. Bugungi kunda mumtoz adabiyotning noyob durdonalari bilan tanishib turganimiz uchun kitoblardan minnatdor bo‘lishimiz zarur.

Kitob chop etish jarayoni hozirgi taraqqiyotiga erishish jarayoni qanchalik uzoq muddat davom etgani va ko‘plab mashaqqatlarga duch kelgani barchamizga ma‘lum. Hatto mashhur shoira Nodirabeginning biror kitobni nusxasini ko‘chirib kelgan odamlarga oltindan yasalgan qalam taqdim etgani haqidagi dalilining o‘ziyoq azaldan ma’naviyatga intilish, taraqqiyotga intilish naqadar kuchli bo‘lganligini anglatadi.

Yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi va yuksak taraqqiyoti, mobil ilovalarning yaratilayotganligi ta’lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu jihatdan multimediya dasturlari va elektron dasturlarning o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi borasidagi har qanday ilmiy, ilmiy-uslubiy va boshqa tadqiqotlar juda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborot bilan ta’minalash, rivojlantirib borish, ta’lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining qo‘llanilish imkoniyatlari oshib bormoqda. Televidenie va radioning ta’lim dasturlari intelektuallashuvi ta’milanadi. Fan va ta’limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma’lumotnomalar bilan ta’minalashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

Hozirgi kunda an’anaviy (bosma) o‘quv adabiyotlarga qarama - qarshi holda 3D, 5D, 7D kino-, videofilmlar, audi-, animatsiyalangan virtual filmlar, televidenie, multimedia vositalari, mobil ilovalar va shu kabi axborot beruvchi ko‘plab zamonaviy vositalar mavjud mana shunday sharoitda ta’lim muassasalarida bugungi kun kitoblarlarining o‘rni qanday bo‘lmog‘i lozim?



An'anaviy bosma shakldagi darslik, o'quv qo'llanma kitoblari hozirgi zamonda yoshlarimiz ehtiyojlarini qondiradimi?

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari – ta'lif oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan ko'p xarajatli, muayan adadli, qiyin nusxalanuvchi, foydalanuvchilarning o'zaro almashishi va olib yurishi qiyin bo'lgan axborot manbaidir.

Elektron o'quv qo'llanmalar – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

Hozirgi ilg'or nanotexnologiyalar asrida yashar ekanmiz barcha imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda talabalar uchun qulay va sifatli zamonaviy elektron kitoblar (o'quv qo'llanmalar) yaratilishi zarurdir.

Bunday elektron qo'llanma shakllari va xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'quv materialini multimedia, ya'ni ma'lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi;
- turli o'quv adabiyotlari – darslik, lug'at, masalalar to'plami va amaliy-labaratoriya mashhg'ulotlari uchun tegishli barcha o'quv qo'llanmalarining bir joyda jamlangan holda ko'rinishi;
- o'rganuvchi va o'rgatuvchi o'rtasida o'zaro bevosita aloqa o'rnatilishi (interfaollik);
- o'qituvchining o'quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha vazifalarining ma'lum qismini kompyuterli o'quv vositalari zimmasiga yuklatilishi;
- o'quvchi tomonidan qabul qilinadigan – maslahat, tushuntirish, ma'lumotni izlash bo'yicha savol-javob va bilimni o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning tezkor uslubiga o'tish imkoniyati;
- kompyuter va mobil ilovalar vizualizatsiyasi orqali o'rganilayotgan ob'ektning kompyuterdag'i imitatsiya modellaridan foydalanish;
- o'quv materialiga nisbatan engil o'zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilishi;
- o'quv materialini yaratish va adadlashning arzonligi;
- o'quvchi faolligining oshirilishi;
- ta'lilda masofadan o'qitish uslubini tashkil qilish imkoniyati;



- an'anaviy o'quv adabiyotlari (bosma adabiyotlar) bilan birlgilikda kompleks holda foydalanish imkoniyatini berishi.

Elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalarining 4 toifasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1 toifa: darslik yoki o'quv qo'llanmalarining elektron ko'rinishi bo'lib, undagi o'quv materiallari matnlar, gipermatn va gipermurojaatlar tashkil topgan bo'lishi talab etiladi;

2 toifa: undagi o'quv materiallar 1- toifa elementlari bilan birga berilgan ma'lumotlar va statik rasmlardan, animatsiyaga asoslangan bo'lishi talab etiladi;

3 toifa: undagi o'quv materiallar 2 - toifa hamda ma'lumot uch o'lchamli-grafik ko'rinishda, dinamik rasmlardan tashkil topgan bo'lishi lozim;

4 toifa: 3 - toifa elementlari, video, animatsiya va ovozli ya'ni multimediali ko'rinishda bo'lishi kerak.

Barcha toifadagi elektron qo'llanmalar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda va talabalarning mustaqil bilim olishlari hamda masofadan o'qitishning o'quv materiallari bazasini tashkil qilish uchun yaratiladi.

Elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalar quiydagি qismlardan iborat bo'lishi zarur:

1. O'rgatuvchi qism – gipermatn va gipermurojaatga asoslangan, statik va dinamik rasmlardan ibora.

2. Mashq qildiruvchi qism – xatolarni ko'rsatib beruvchi to'g'ri xulosaga olib keluvchi.

3. Nazorat qildiruvchi – testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan talablarga ijodiy yondoshib yaratilgan kitoblar (elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalar) qanchalik tez va ko'plab yaratilsagina "Yoshlarni axborot huruji" xamda "Ommaviy madaniyat" ning salbiy tasirlaridan himoyalash kafolatlanadi.

"Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz", degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev.

Shu o'rinda muhtaram birinchi prezidentimiz I. A. Karimov «Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» nomli asarlaridan iqtibos keltirish bilan



yakunlaymiz: «Ijod – bu o‘zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma’noda fidoyilik demakdir».

Adabiyotlar.

1. Shodievich S. H., Roziqovna R. M. OLIY O ‘QUV YURTLARIDA MASHG ‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O ‘RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 25. – №. 1. – C. 52-55.
2. Yusupov M. I., Sh S. H., Mamarasulova N. I. MASOFADAN TURIB O’QITISHDA MODUL ELEKTRON PLATFORMASINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 9. – №. 2. – C. 47-50.
3. Болтаев К. С., Хамза Ш. Ш. ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРДА ЎҚИТИШНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЎРНИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 4. – №. 1. – С. 328-333.
4. Sh S. H., Mamarasulova N. I., Yusupov M. I. HOZIRGI ZAMON TALABALARINING BILIM OLISHIDA ETIK-ESTETIK CHALG’ITUVCHI OMILLAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 9. – №. 2. – C. 90-95.
5. Mamarasulova N. I., Yusupov M. I., Sh S. H. YANGI ELEKTRON O’QITISH TIZIMI BIZGA QANDAY IMKONIYATLAR BERDI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 9. – №. 2. – C. 19-23.
6. Международная олимпиада - “Молодое поколение судебной медицины” / С. И. Индиаминов, М. Р. Расулова, Ф. Х. Бойманов, А. А. Ким // Вестник судебной медицины. – 2021. – Т. 10, № 4. – С. 54-56. – EDN WULIIS.
7. Indiaminov S.I., Rasulova M.R. FEATURES OF FRACTURES OF BONES OF A NOSE IN PRACTICE FORENSIC MEDICAL EXAMINATION // Russian Journal of Forensic Medicine. - 2018. - Vol. 4. - N. 3. - P. 24-27. doi: [10.19048/2411-8729-2018-4-3-24-27](https://doi.org/10.19048/2411-8729-2018-4-3-24-27)
8. Шайкулов Х. Ш. Esherixioz bilan kasallangan bolalardan ajratilgan gemolitik E. coli bakteriyalarining antibiotiklarga sezgirligi //Молодой ученый.— 2023. – Т. 4. – №. 451. – С. 489-491.
9. Хусанов Э. У., Расулова М. Р., Шайкулов Х. Ш. Особенности повреждений подъязычно-гортанного комплекса при тупой механической травме //Астана медициналық журналы. – 2022. – №. S1. – С. 262-265.
10. Саъдинов П. и др. Клинико-эпидемиологическая характеристика стафилококковых энтероколитов у детей раннего возраста //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 151-152.



11. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯХ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 120-127.
12. Расулова Мухсина Розиковна, Юлаева Ирина Андреевна, Шодиев Жавохир Хамзаевич СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoye-metody-diagnostiki-perelomov-kostey-nosa>
13. Шодиев, Ж. Х. Источники финансирования инвестиционной деятельности со стороны государства / Ж. Х. Шодиев, С. С. Алиева, . — Текст : непосредственный // Analytical Journal of Education and Development. — 2023. — № Vol.03 Iss.02. — С. 294-297.
14. Hamza, S., Muzaffar, A. ., Dildora, S., & Ulug'bek, A. . (2023). BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYA SHTAMMLARINING PHASEOLUS VULGARIS O`SIMLIGI BIOMETRIK KO`RSATKICHLARIGA VA RIVOJLANISHIGA TA`SIRI. Scientific Impulse, 1(6), 327–332. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4355>
15. Shayqulov , H. S., Mamadiyorova , M. M., & Hayitov , S. M. o‘g‘li. (2023). DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI. GOLDEN BRAIN, 1(6), 20–24. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1935>
16. Shodiyeva Dildora G‘iyosovna, Bobaqandova Mexriniso Fazliddinovna , Shayqulov Hamza Shodiyevich. (2023). FITOPATOGENLARGA QARSHI BAKTERIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH. IQRO JURNALI, 2(1), 78–82. Retrieved from <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/222>
17. Шайкулов, X. III. Antibiotikorezistent laktobakteriyalardan foydalanishning samaradorligi / X. III. Шайкулов, С. М. Хайтов, Ф. Б. Эшмаматова, М. Б. Ташполатова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 10 (457). — С. 268-271. — URL: <https://moluch.ru/archive/457/100581/>